



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2022-yil 22-avgust 284-son

Toshkent sh.

**O‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi
hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga
va ulardan oliy ta‘lim muassasalarida
foydalanishga qo‘yiladigan talablarni
belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta‘lim muassasalarida foydalanishga qo‘yiladigan talablar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, o‘quv adabiyotlarini tayyorlash 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab, ushbu Tartib asosida amalga oshiriladi.

2. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.



Vazir

A.Toshkulov



O'zbekiston Respublikasi
o'rta maxsus ta'lim vazirining
2023 yil 24-avgust
284 -son buyrug'iga
ilova

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o'quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablar

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib 2022/2023-o'quv yilidan boshlab, o'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibini hamda o'quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

2. Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash mavjud bo'lgan zarur o'quv adabiyotlarini xarid qilish, yangilarini yaratish va belgilangan tartibda nashr etish (foydalanilayotgan adabiyotlarni qayta nashr etish) hamda axborot-resurs markazlariga joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. O'quv adabiyotlari davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik ma'lumotlar, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, jahon tajribalari asosida tizimli bayon etilgan nashr bo'lib, asosan ikki xil shaklda tayyorlanadi:

an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, o'quv materiallari va ma'lumotlar hajmi, shriftlar, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda matbaa usulida tayyorlanib chop etilgan nashr;

elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron majmua.

4. O'quv adabiyotlarining turlari quyidagilardan iborat:

darslik – muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura))ga moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashr;

o'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan o'quv dasturi bo'yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlovchi, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura))ga moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg'ulotlarga mo'ljallangan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o'quv nashr;

uslubiy qo'llanma – professor-o'qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish

usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

uslubiy ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan, ushbu fan bo'yicha bilim oluvchilarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

uslubiy tavsiyanoma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o'zlashtirish, nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o'quv adabiyoti hisoblanadigan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

ma'lumotlar to'plami (banki) – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalaridagi qisqa ilmiy, amaliy, ma'lumotlardan tashkil topgan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha ma'ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

mashqlar (masalalar) to'plami – muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek, ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etilgan nashr;

daydjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o‘quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma‘lumotlar to‘plami sifatida foydalaniladigan nashr.

5. Oliy ta‘lim muassasalari tomonidan, zaruratga ko‘ra, ko‘zi ojiz talabalar uchun axborot-resurs markazlariga joylashtirilgan o‘quv adabiyotlari asosida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga amal qilgan holda tegishli Brayl yozuvidagi adabiyotlar hamda o‘quv adabiyotlarining tinglab o‘rganadigan audio-darsliklari yaratiladi va axborot-resurs markazida saqlanadi.

Brayl yozuvi – bu ko‘zi ojizlarga mo‘ljallab ishlab chiqilgan yozuv shaklidir. Brayl yozuvi bo‘rtma nuqtalardan iborat shrift bo‘lib ko‘zi ojizlar o‘qish va yozishi uchun mo‘ljallangan. Brayl shrifti asosida 6 nuqtani turli vaziyatda uyg‘unlashtirish yotadi. Alifboning oldingi harflarini belgilash uchun 6 nuqtaning yuqori va o‘rta nuqtalaridan foydalanilgan. Keyingi harflarni belgilash uchun qo‘sh nuqtalar chapdan, so‘ng chap va o‘ngdan, undan keyin o‘ngdan qo‘shilgan.

Audio kitoblar – o‘qish o‘rniga tinglaydigan kitob matnining ovozli yozuvdir. Ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun audiovizual adabiyotlar tayyorlanadi. Audio yozuv-bu ravon nutq va xatolarsiz kitob va darsliklarni, roman va hikoyalarni audio ko‘rinishda ovozli yozishdir. Bu kuzi ojizlarning birdan-bir suyanchig‘i bo‘lgan eshitish a‘zosi orqali asarlarni tinglashga imkon beradi. Audiokitoblar to‘liq matnli so‘zlar yoki qisqartirilgan versiyalar bo‘lishi mumkin.

2-bob. O‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi

6. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalariga kiritilgan fanlar bo‘yicha yaratilishi zarur bo‘lgan o‘quv adabiyotlari ro‘yxatini shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

oliy ta‘lim muassasalari barcha kafedralari kesimida davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlariga muvofiq yaratilishi zarur bo‘lgan hamda ma‘nan eskirganligi sababli qayta nashrga ehtiyoj bo‘lgan o‘quv adabiyotlari ro‘yxati fanlar bo‘yicha takrorlanadigan adabiyotlarni bartaraf etgan holda shakllantiradi.

ro‘yxati shakllantirilgan o‘quv adabiyotlarini yaratish va nashr etish bo‘yicha nashr rejasi tasdiqlanadi.

7. O‘quv adabiyotlarini tayyorlash uchun oliy ta‘lim muassasalarida sohaning yetakchi mutaxassislari, professor-o‘qituvchilari va olimlar tarkibidan muallif (mualliflar jamoasi) belgilanadi. Mualliflar tarkibiga turdosh oliy ta‘lim muassasalarining yetakchi professor-o‘qituvchilari hamda xorijiy olimlar va boshqa mutaxassislar ham kiritilishi mumkin.

8. Vazirliklar va vakolatli muassasalarining buyurtmalari asosida o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish uchun mualliflar tarkibini tanlash tizimida raqobat muhitini yaratish, shuningdek uning ochiq-oshkoraligini ta‘minlash, o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqishga eng malakali mutaxassislarni jalb etish maqsadida ayrim hollarda, o‘quv adabiyotlarini tayyorlash uchun mualliflar tanlov asosida

belgilanishi mumkin. Tanlovda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, ishlab chiqarish, fan, ta'lim va tegishli boshqa sohalarning yuqori malakali mutaxassislari, shuningdek xorijiy mamlakatlar yetakchi mutaxassislari ham ishtirok etishi mumkin.

9. O'quv adabiyotlari davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablarga mos holda, matbaa va noshirlik me'yorlariga amal qilgan holda tayyorlanadi.

10. Oliy ta'lim muassasalari (moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno) uchun o'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi 1-ilovadagi sxemaga muvofiq;

moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini tayyorlash 2-ilovadagi sxema, namunaviy tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. O'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan umumiy talablar

11. Talablarning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimining barcha ta'lim turlari uchun zamonaviy o'quv adabiyotlarining shakli, turi, funksiyasi, yaratish tamoyillari va talablarini belgilash hamda o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonida asosiy uslubiy va me'yoriy vosita bo'lib xizmat qilishdir.

12. O'quv adabiyotlari rivojlantirish strategiyasining demokratik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yo'nalishlarida mamlakat taraqqiyotining ustuvor masalalariga asoslangan holda yaratiladi va talabaning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi, shuningdek soha bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar, jahon ilm-fani, uslubiyot, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari, taraqqiyot tendensiyalarini hisobga oladi.

13. O'quv adabiyotlari tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida tayyorlanadi. O'quv adabiyotlarining nomi o'quv rejalaridagi fanlar nomi bilan mos kelishi maqsadga muvofiq.

14. O'quv adabiyotlarini yaratishda:

mamlakatda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari (umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik ta'minlanadi hamda fanlar mavzularining asossiz takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

fanlarda mavzular izchilligiga, oddiydan murakkabga, xususiyan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinadi.

15. Yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim olish, mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini talabalarda shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi.

16. O'quv adabiyotlari tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, ma'lumotlar talabalar tomonidan imkon darajasida oson va qiyinchiliksiz qabul qilinadigan, xotirada saqlanadigan tarzda berilishi hamda ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatini yaratishi lozim.

17. Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalar rivojlangani sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi.

4-bob. O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablar va uning funksiyalari

18. O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

muayyan fanning mohiyati, mazmuni va mavzularini fan dasturida belgilangan hajmlarda izchillik bilan yoritilishi, o'quv materiallarining mazkur fan orqali ta'lim oluvchilarga berilishi zarur bo'lgan kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan tartibda tizimli bayon qilinishi;

yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar va hokazo)dan tashkil topishi, illyustratsiyalarga boy, zamonaviy ko'rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lishi;

bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;

nazariy va amaliy ma'lumotlar maqbul, puxta, ravon, ijodiy va qiziqtiruvchan shaklda ifoda qilinishi, zarur hollarda fanga oid keng qamrovli misol va masalalar, uzoq va yaqin o'tmishdagi boy madaniy merosimiz namunalari bilan boyitilishi;

jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini inobatga olishi, uning ahamiyatini ifodalashi, soha va fanga oid milliy va xorijiy tajriba va ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda bayon etilishi;

asosiy tushuncha va xulosalarning ta'riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiylikiga erishilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interfaol uslublarini tatbiq qilishga ko'mak berishi;

bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, qiziqish uyg'otish va mustaqil fikrlashga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi;

bilim oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi;

ta'lim oluvchilarning bilimi, uquvi va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;

insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda mas'uliyatligini anglatishga qaratilishi;

vatanparvarlik hissi, ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilishi, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashga e'tibor berishi.

19. O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

o'quv adabiyotlaridagi mavzu, mazmun va matnlar uzluksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlaridagi turdosh fanlarning mavzu, mazmun va matnlarini takrorlamasligi;

o'quv materiallarining mazmuni dalillardan namunalarga, namunadan farazga, farazdan izlanishga, izlanishdan amaliy qo'llashga, abstrakt ilmiy bilimdan aniq kasbiy bilimga, bilimdan amaliy ko'nikmaga o'tishga yo'naltirilishi;

mavzularda "oddiydan murakkabga", "umumiydan xususiyga" kabi tamoyillarga rioya etilishi;

rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar mantiqan maqbul darajada joylashtirilishi, berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi;

matnlar dizayni maqbul va mukammal bajarilishi, takrorlanuvchi tushunchalar, rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalar, e'tiborni jalb etish uchun zarur bo'lgan jumlar, misollar va xulosalarni ajratish maqsadida maxsus belgilardan hamda ta'sirchan grafik vositalardan foydalanish;

kasbiy xarakterga ega bo'lgan va bilim oluvchilar mustaqil ishlashi uchun mo'ljallangan muammoli savollar, topshiriqlar, mashqlar, loyihalar bilan ta'minlanishi;

topshiriqlar va vazifalar keng ko'lamli bilim oluvchilar bajaradigan amaliy ishlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini berishi;

o'quv materiallarida talabalarni faol bo'lish va tanqidiy fikrlashga undash va ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiruvchi jihatlarning mavjud bo'lishi;

O'zbekistonning turli hududlaridagi o'ziga xos madaniy xususiyatlar, tabiiy iqlim sharoitlari hisobga olinishi.

20. O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar quyidagilar:

o'qitiladigan fanlar va ularga tegishli o'quv adabiyotlarining mazmun-mohiyati nihoyatda chuqur ilmiy-uslubiy, yuqori sifat ko'rsatkichlarda bo'lishi;

o'quv adabiyotlaridagi har bir bob yoki mavzuning mazmuni tushunarli, ilmiy g'oya va tushunchalarning mohiyati aniq va ravshan bayon etilishi;

matnni xotirada saqlashni osonlashtirish, mavzular ixcham chizmalar, turli tasviriy ifodalar, jadval, infografika hamda rasmlar bilan muvofiq tarzda ta'minlanishi;

aniq va tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy tushuncha va g'oyalar, qonun va qonuniyatlar, tarixiy hodisa va ijtimoiy jarayonlarning hayotiylikiga e'tibor qaratilishi, tahliliy munosabatning yetarli darajada bo'lishi;

muallif va talaba o'rtasida fikrlarning mantiqiy bayoni jarayonida o'zaro bog'liqlik ta'minlanishi;

amaliy va tajriba mashg'ulotlarini bajarish hamda mashqlarni yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilishi, matn, illyustratsiya va grafiklar yordamida bilim olish orqali kengaytirilgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati bo'lishi;

o'quv maqsadlari va vazifalarining aniq belgilanishi, fanlararo va fan ichida o'zaro bog'liqlikni ta'minlanishi, nazariy va amaliy mazmunning o'zaro maqbul va bog'liq holda taqsimlanishi;

mazmun ishonchli va salohiyat bilan yoritilishi, unda mualliflarning fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlaridan foydalanganligi ko'rinib turishi;

tasviriy materiallardan maksimal foydalanish, dinamik jarayonlarni o'rganishni osonlashtirish maqsadida elektron ta'lim vositalarini (multimedia, animatsiya, virtual stendlar va h.k.) qo'shimcha material sifatida ishlatish imkonini berishi;

o'quv materiallarida ta'lim oluvchilarni faol bo'lish va tanqidiy fikrlashga undash va ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiruvchi jihatlarning mavjud bo'lishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining yaratilishi.

21. O'quv adabiyotlarining asosiy funksiyalari quyidagilar:

axborot funksiyasi – ta'lim oluvchi muayyan fan bo'yicha egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar mazmunini qamrab olganligi;

tizimlovchi funksiyasi – o'quv fani mazmuni tizimlangan shaklda qat'i ketma-ketlikda va izchillikda oddiydan murakkabga rioya qilingan holda bayon qilinishini ta'minlashi;

muvofiqlashtiruvchi funksiyasi – fan o'quv materialini loyihalash jarayonida boshqa o'quv manbalarida keltirilgan materiallarni o'rganish, ular orasida uzviylikni ta'minlash, axborot oqimini tez o'zlashtirish, olgan bilimlarni chuqurlashtirish va amaliy faoliyat jarayonida qo'llash yo'llarini topishga xizmat qilishi;

mutaxassislikka yo'naltirilganlik funksiyasi – o'quv adabiyotining mazmuni talabning mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, obyektlari, texnika va texnologiyalar to'g'risidagi asosiy fundamental tushuncha va bilimga ega bo'lishini ta'minlashi hamda kelajakda ularga tayanib yangi ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish va o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi;

didaktik funksiyasi – ta'lim oluvchining qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga hamda asosiy mazmuni ajratish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qilishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va o'zini o'zi nazorat qilish funksiyasi – ta'lim oluvchining o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil tarzda darslikdagi nazorat savollari, test materiallaridan foydalanib, o'zining bilimni tekshirishi hamda bilimiga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni bajara olishiga qaratilgan faoliyatlarga ko'maklashishi;

ta'lim oluvchilarni mustaqil ta'lim olishga qiziqtirish va ijodkorlikka undovchi funksiyasi – ta'lim oluvchilarda mustaqil tarzda ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoq, ehtiyoj va zaruratni uyg'otishi, yetishmaydigan bilimlarni mustaqil tarzda to'ldirishga yordam berishga yo'naltirilganligi. Ta'lim oluvchilarga mustaqil ravishda bajarishi lozim bo'lgan loyihalar, muammoli savollar va topshiriqlar berilishi orqali ularda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi funksiyasi – o'quv materiallari asosida shaxsning davlat va xalqiga e'tiqodni, ma'naviy-insoniy xislatlarni,

vatanparvarlikni, mehnatsevarlik kabi boshqa ijobiy fazilatlarining faol shakllanishiga ko'mak berishi.

22. Har bir bilim va ta'lim sohalari xususiyatidan kelib chiqib, Vazirlik bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasalarining kengashi qarori asosida o'quv adabiyotlariga qo'shimcha talablar kiritilishi mumkin.

5-bob. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar

23. Elektron o'quv adabiyotlarini (darsliklarni) yaratish tamoyillari:

modullilik tamoyili – o'quv materialini hajmi bo'yicha kichik, ammo tarkibi bo'yicha bir butun bo'lgan modullardan (bo'limlardan) iborat bo'lgan bo'laklarga bo'lib chiqilganligi;

to'liqlik tamoyili – har bir yaratilayotgan bo'lim (modul) uni tashkil etuvchi nazariy va amaliy qismlar, nazariy bilimlarni tekshirish bo'yicha tuzilgan nazorat savollari (testlar), mustaqil yechish uchun topshiriq va amaliy ko'nikmalarni o'rganishga yo'naltirilgan mashqlar, tajribalar va tegishli sharhlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqligi;

ko'rgazmalilik tamoyili – har bir bo'limda (modulda) yangi tushunchalar, fikrlar hamda uslublarni tushunarli va eslab qolishni yengillashtiruvchi matnlar hajmi o'lchamlari kichik bo'lgan kadrlarning ketma-ketligidan iborat bo'lishi;

tarmoqlanish tamoyili – har bir bo'limlardan (modullardan) gipermatnli havolalar orqali boshqa bo'limlar bilan bog'lanish imkoniyatlari mavjudligi, o'rganilayotgan fan materiallari cheklanmagan holda bosqichma-bosqich o'zlashtirib borish imkoni bo'lishi.

boshqaruvchanlik tamoyili – ta'lim oluvchilar ekranda tasvirlanadigan kadrlarning almashuvini o'zlari mustaqil boshqara olishlari, istalgan mavzu yoki ma'lumotlarni, tushunchalar, fikrlar, illyustratsiya materiallari va multimedialarni ekranga chiqarish imkoniga ega bo'lishi, ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni nazorat savollari, testlar va amaliy mashg'ulotlar orqali tekshirish imkoniyati mavjudligi;

ko'nikuvchanlik tamoyili – elektron darslik o'quv jarayonida aniq foydalanuvchi ehtiyojlariga ko'nikib borishini ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning chuqurligi va murakkabligini hamda ta'lim oluvchining kelgusi ta'lim bosqichiga bog'liq holda amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirib borishga imkoniyat yaratishi, foydalanuvchilar o'z ehtiyojlariga ko'ra qo'shimcha illyustratsiya materiallarini yuzaga keltira olishlari, o'rganilayotgan tushunchalarni chizma va geometrik jihatdan talqin qila olishlariga xizmat qilishi;

kompyuterli qo'llab quvvatlash tamoyili – ta'lim oluvchilar o'rganish jarayonining istalgan paytida o'quv materialining mohiyatiga o'ziga diqqatni jalb etishga undovchi topshiriq va masalalarni qarab chiqish hamda ularni bajarishda kompyuterdan foydalanishlari uchun sharoit mavjudligi. Elektron o'quv adabiyotini kompyuterda o'rganishda murakkab almashtirish amallarini, turli xil hisoblashlarni va grafiklarni tuzib chiqish, rasm va sxemalarni chizish, murakkab darajadagi turli amallarni bajarish imkoniyatlari mavjudligi;

yig'iluvchanlik tamoyili – elektron darslikni yangi bo'limlar va mavzular, fan va texnika yangiliklari bilan kengaytirib va to'ldirib borishga imkon berishi hamda maxsus va alohida fanlar bo'yicha elektron kutubxonalarni yoki ta'lim oluvchilar, (u o'qiyotgan mutaxassislik va kursga mos holda) o'qituvchilar yoki tadqiqotchilarning xususiy elektron kutubxonalarni shakllantirishga imkon yaratishi.

24. Elektron darslikka qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

elektron darslikning mazmuni va tarkibi ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlariga mos kelishi kerak;

elektron darslikning tuzilmasi va mazmuni o'quv materialini chuqur o'rganishga mo'ljallash bilan bir vaqtda o'rganilayotgan fanning o'quv dasturiga mos kelishi kerak;

o'qitishda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini hisobga olishda o'quv materiali mazmunining yetarlicha chuqurligini, ishonchligini ta'minlash, o'quv materialini elektron darslik yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda qurilishi zarur;

elektron darslik ta'lim oluvchilarning yoshi hamda alohida xususiyatlariga xos o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlashi zarur, o'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklashga yo'l qo'ymasligi lozim;

ta'lim oluvchiga an'anaviy o'quv adabiyotlarida imkoni bo'lmagan muammoli topshiriqlar, mashqlar, amaliy mashg'ulotlarni bajarishga imkon yaratishi kerak;

o'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlashi, ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan obyektlar, ularning maketlari, uch o'lchamdagi modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatish imkonini berishi lozim;

elektron darslikdan foydalanishda bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi ta'lim oluvchilarning o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishlari uchun, ularni chuqur fikrlash, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak;

elektron darslik o'quv faoliyatining izlash, yig'ish, saqlash, tahlil, ishlov berish kabi ko'rinishlarini avtomatlashtirishni, hisoblashlarni, loyihalash va konstruksiyalashni, tajriba, eksperimentning natijalariga ishlov berishni, nazorat topshiriqlarni, axborotli ishlov berishni avtomatlashtirishni ko'zda tutishi kerak;

elektron darslik murakkab obyektlar (mashina, uskuna, apparat, moslama va h.k.) ishining imitatsiyasini, turli jarayonlarni real, tezashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida o'tish vositalarini tarkibida saqlashi kerak.

25. Elektron darslikka qo'yiladigan o'ziga xos didaktik talablar quyidagilar:

moslashuvchanlik talabi – elektron darslik ta'lim oluvchining xususiy imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikmalari va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi;

o'qitishning interfaollik talabi – elektron darslik o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlashi, interfaol muloqot va qaytarma aloqani ta'minlashi;

vizuallashtirish talabi – elektron darslik o‘quv axborotini taqdim qilishida kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish zarurligi;

ta’lim oluvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish talabi – fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon berishi;

tizimlilik talabi – elektron darslik o‘quv materialini namoyish qilishning tizimlilik va funksional bog‘liqligini, to‘liqligi va uzluksizligini ta’minlashi.

Elektron darslik o‘zida muammoli va izlanish topshiriqlarining intellektual o‘rgatuvchi tizimiga ega bo‘lishi, o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi kerak.

26. Elektron darsliklarga qo‘yiladigan umumiy texnik, texnologik talablarga binoan elektron darslik:

lokal va boshqa tashqi axborot tashuvchilarda, tarmoqli tartibotda harakatlanishi;

multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalarini maksimal qo‘llash imkonini berishi;

ishlash qobiliyati puxta va barqaror bo‘lishi;

turli elektron tashuvchilarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi;

lokal va tarmoqli tartibda ishlash imkoniyati mavjud bo‘lishi;

jamoaviy ishlash imkonini (o‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilan interaktiv va qaytarma aloqada bo‘lishi) berishi kerak.

27. Elektron darsliklarni yaratishning o‘quv-uslubiy, texnik, texnologik tartibi tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi.

6-bob. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv adabiyotlaridan foydalanishga qo‘yiladigan talablar

28. O‘quv adabiyotlarining matbaa usulida nashr qilingan nusxalari hamda mualliflar bilan belgilangan tartibda kelishilgan holda o‘quv adabiyotlarining elektron nusxalari saqlanadigan oliy ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlari ta’lim jarayonini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlaydigan asosiy manba hisoblanadi.

29. O‘quv adabiyotlari bilan oliy ta’lim muassasalarini ta’minlash me’yorlari muayyan oliy ta’lim muassasasining axborot-resurs markazida mavjud bo‘lgan o‘quv adabiyotlari soni tegishli ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligida ta’lim olayotgan talabalar soni bilan nisbat ko‘rinishida belgilanadi.

30. Oliy ta’limning bakalavriat bosqichi uchun o‘tilayotgan fanlar bo‘yicha har 6 nafar talabaga kamida 1 (bir) dona o‘quv adabiyoti to‘g‘ri kelsa, mazkur ta’lim yo‘nalishi o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlangan hisoblanadi.

Axborot-resurs markazida o‘quv adabiyotlarining elektron nusxalari mavjud bo‘lsa, ta’lim jarayoni o‘quv adabiyotlari bilan to‘liq ta’minlanganligi nazarda tutiladi.

31. Nashr qilinayotgan o‘quv adabiyotlarining adadi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha har 6 nafar talabaga kamida

1 (bir) dona hamda har 2 (ikki) nafar talabaga ko'pi bilan 1 (bir) dona o'quv adabiyoti to'g'ri kelishi miqdorlari oralig'ida belgilanadi.

Nashr qilinadigan o'quv adabiyotlarining adadi ushbu me'yorlarga amal qilgan holda, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan ekspertlar xulosasi asosida belgilanadi va Vazirlikka tavsiya qilinadi. Vazirlik tomonidan bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi.

32. Oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlari fondidagi o'quv adabiyotlari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, yangilanish, fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari, ilg'or xalqaro tajriba va taraqqiyot tendensiyalari, yangi fanlar va ta'lim yo'nalishlari kiritilishi, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari takomillashtirilishi va o'zgartirilishiga muvofiq yangilanib borilishi lozim.

33. O'quv adabiyotlarini yangilab borish davriyligi kredit-modul tizimi o'quv rejalaridan kelib chiqib, quyidagicha belgilanadi va tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi:

ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari uchun – 5 yil;

maxsus fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari uchun – 6 yil;

umumkasbiy fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari uchun – 7 yil;

tabiiy-ilmiy va matematika fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari uchun – 10 yil.

Tanlov fanlari uchun yaratilgan adabiyotlar davriyligi oliy ta'lim muassasasi tomonidan fanlar turkumlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilanadi.

34. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari ilk bor kiritilishi yoki yangilanishi, yangi fanlar kiritilishi hamda Hukumat qarorlari va ko'rsatmalari asosida o'quv adabiyotlari tavsiya etilgan davriylikdan mustasno tarzda yangilanadi.

35. Yangilanishi zarur bo'lgan o'quv adabiyotlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan chop etilishi rejalashtirilayotgan ro'yxatga kiritiladi. Bunda o'quv adabiyoti yangilanishining sabablari, mavjud o'quv adabiyoti nechanchi yilda chop etilgani ko'rsatiladi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

36. Mazkur Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv
adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o'quv
adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim
muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan
talablarga
1-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibining SXEMASI

Bosqichlar	Tadbirlar	Mas'ullar	Muddat
1-bosqich	Oliy ta'lim muassasalarining yillik nashr rejasiga muvofiq o'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni tayyorlash; Kafedra muhokamasidan o'tkazish; Ichki va tashqi taqrizlar olish; Fakultet uslubiy kengashida muhokama qilish; Oliy ta'lim muassasasi kengashida muhokama qilish va nashr qilishga tavsiya etish.	Oliy ta'lim muassasalari (muallif va mualliflar jamoasi)	Reja asosida
2-bosqich	Oliy ta'lim muassasasi kengashi qarori asosida tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining https://adabiyot.edu.uz/ elektron platformasiga joylashtirish.	Oliy ta'lim muassasalari (muallif va mualliflar jamoasi)	Reja asosida
3-bosqich	Oliy ta'lim muassasalari tomonidan platformaga kiritilgan o'quv adabiyotlari qo'lyozmalarini belgilangan talablar asosida platformaga joylashtirilganligini ko'rib chiqish; Platformaga belgilangan talablar asosida joylashtirilmagan o'quv adabiyotlarini talabgorga qaytarish; Platformaga belgilangan talablar asosida joylashtirilgan o'quv adabiyotlarini ta'lim sohalarini va yo'nalishlariga muvofiq ekspertlarga yo'naltirish.	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi	3 kun
4-bosqich	O'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablarga mosligi, o'quvchi va talabalarga mukammal	Ekspertlar	20 kun

		zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni berishga xizmat qilishi yuzasidan belgilangan baholash mezonlari asosida ekspertizadan o'tkazish, asoslangan xulosa hamda uning o'zbek, rus, qoraqalpoq tilidagi adadi va nashr etish manbalari (markazlashgan byudjet mablag'lari, oliy ta'lim muassasalarining mablag'lari va boshqalar) yuzasidan tavsiya berish.		
5-bosqich	--	O'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni ekspertlarning ijobiy xulosalari asosida Vazirlik huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida muhokama qilish hamda bayon bilan nashr etishga tavsiya etish.	--	Muvofiqlashtiruvchi kengash
				20 kun
6-bosqich		Ekspertlar tomonidan salbiy baholangan o'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni qayta ishlash uchun tegishli oliy ta'lim muassasalariga yuborish.	--	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi
				To'g'ridan to'g'ri
7-bosqich		Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan o'quv adabiyotlarining ro'yxatini ularni tayyorlagan oliy ta'lim muassasasi, mualliflar familiyasi, ismi va sharifi, o'quv adabiyotining turi, uning hajmi, adadi va moliyalashtirish manbasi ko'rsatilgan holda nashr etishga ruxsat berish yuzasidan Vazirlik buyrug'ini rasmiylashtirish.		Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi
				10 kun
8-bosqich	--	Nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarining QR-kodli nashr ruxsatnomalarini rasmiylashtirish va platformaga joylashtirish.	--	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi.
				5 kun
9-bosqich	--	Nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarini belgilangan tartibda nashr etish hamda nashr etilgan o'quv adabiyotlaridan o'quvchi va talabalar foydalanishi uchun mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga amal qilgan holda oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlariga o'quv adabiyotlarining bosma hamda elektron nusxalarini joylashtirish.	--	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi, Oliy ta'lim muassasalari
				Reja asosida

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv
adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o'quv
adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim
muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan
talablarga
2-ILOVA

**Moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun
o'quv adabiyotlarini tayyorlash namunaviy tartibining
SXEMASI**

Bosqichlar	Tadbirlar	Mas'ullar	Muddat
1-bosqich	Tasdiqlangan nashr rejasiga muvofiq o'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni tayyorlash: Ichki va tashqi taqrizlar olish; Kafedra yig'ilishida muhokama qilish.	Kafedralar <i>(muallif va mualliflar jamoasi)</i>	Reja asosida
2-bosqich	Kafedra yig'ilishi qarori asosida tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni oliy ta'lim muassasasining O'quv-uslubiy boshqarmasi (bo'limi)ga kiritish.	Kafedralar <i>(muallif va mualliflar jamoasi)</i>	Reja asosida
3-bosqich	O'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni qabul qilish, qayd etish va ta'lim sohalari va yo'nalishlariga muvofiq, ekspertlarga taqdim etish.	O'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim)	3 kun
4-bosqich	O'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablarga mosligi, o'quvchi va talabalarga mukammal zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni berishga xizmat qilishi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish, asoslangan xulosa hamda uning o'zbek, rus, qoraqalpoq tilidagi adadi va nashr etish manbalari yuzasidan tavsiya berish.	Ekspertlar	20 kun

5-bosqich	O'quv adabiyotlari (qo'lyozmasi)ni ekspertlarning ijobiy xulosalari asosida oliy ta'lim muassasasining "O'quv-uslubiy kengashi" majlisida muhokama qilish hamda bayon bilan nashr etishga tavsiya etish.	"O'quv-uslubiy kengash"	20 kun
6-bosqich	Ekspertlar tomonidan salbiy baholangan o'quv adabiyotlari qo'lyozmalarini qayta ishlash uchun muallif (mualliflar jamoasi)ga yuborish.	O'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim)	3 kun
7-bosqich	"O'quv-uslubiy kengash" tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan o'quv adabiyotlarini mualliflar familiyasi, ismi va sharifi, o'quv adabiyotining turi, uning hajmi, adadi va moliyalashtirish manbasi ko'rsatilgan holda nashr etishga ruxsat berish yuzasidan oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'ini rasmiylashtirish.	O'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim)	10 kun
8-bosqich	Nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarining nashr ruxsatnomalarini rasmiylashtirish va mualliflar jamoasiga taqdim etish.	O'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim)	5 kun
9-bosqich	Nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarini belgilangan tartibda nashr etish hamda nashr etilgan o'quv adabiyotlaridan o'quvchi va talabalar foydalanishi uchun mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga amal qilgan holda axborot-resurs markaziga o'quv adabiyotlarining bosma hamda elektron nusxalarini joylashtirish.	O'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim), Axborot-resurs markazi	Reja asosida

Izoh: Bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan berilgan nashr etish ruxsatnomasi (guvoohnomasi) professor-o'qituvchilar boshqa oliy ta'lim muassasasiga ishga o'tganda yoki o'rindoshlik asosida boshqa oliy ta'lim muassasasida ishlaganda tan olinadi.